

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti	6
Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана	12
Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni	22
A.S.Toshmatov The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
G.Sh.Latipova Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	31
Sh.D.Iskanderova Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners	38
I.M.Saidov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
Н.Ш.Абдуллаева Characteristics and evolution of middle English language.....	48
M.A.G'ofurova Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
N.F.Yigitaliyeva Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	59
T.T.Shoymardonov Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv	63
S.M.Abdullayev Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlarini	73
D.I.Gulamova Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....	77
B.T.Jumayeva Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	81
A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati.	89
G'.R.Israilov Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli	93
A.X.Karimov Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlarini	97
М.Н.Насритдинова Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 374.7:355.58

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI O'QITUVCHILARIDA IJTIMOY-MADANIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI HAMDA UNING TARKIBIY QISMLARI**PRINCIPLES AND STRUCTURAL COMPONENTS OF DEVELOPING SOCIO-CULTURAL ACTIVITY AMONG PRE-CONSCRIPTION MILITARY EDUCATION TEACHERS****ПРИНЦИПЫ И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ АКТИВНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ****Saidov Ixtiyor Mizrabovich** 

"Urganch Ranch Texnologiya" universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Harbiy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning madaniy saviyasini yuksaltirish hamda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy-madaniy faollik tushunchasi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik sharoitlar va metodlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida harbiy ta'limda ijtimoiy-madaniy faollikni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Abstract

This article analyzes the principles of forming socio-cultural activity and its components among military teachers. In the process of military education, increasing teachers' social activity, enhancing their cultural level, and strengthening their sense of patriotism are of great importance. The article also examines the concepts of socio-cultural activity, the factors influencing its formation, as well as pedagogical conditions and methods. Based on the research results, recommendations are provided for developing socio-cultural activity in military education.

Аннотация

В данной статье анализируются принципы формирования социально-культурной активности и её составляющие у преподавателей допризывного военного направления. В процессе военного образования важное значение имеет повышение социальной активности преподавателей, повышение их культурного уровня и укрепление чувства патриотизма. Также в статье рассматриваются понятия социально-культурной активности, факторы, влияющие на её формирование, педагогические условия и методы. На основе результатов исследования даны рекомендации по развитию социально-культурной активности в военном образовании.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, ijtimoiy-madaniy komponent, tamoyillar, tarkibiy qismlar, vatanparvarlik, pedagogik sharoitlar, kognitiv komponenti, mas'uliyatlilik komponenti, Motivatsion komponenti, madaniy saviya, harbiy o'qituvchilar.

Ключевые слова: Военное образование, социально-культурный компонент, принципы, структурные элементы, патриотизм, педагогические условия, когнитивный компонент, компонент ответственности, мотивационный компонент, культурный уровень, военные студенты.

Key words: Military education, socio-cultural component, principles, structural elements, patriotism, pedagogical conditions, cognitive component, responsibility component, motivational component, cultural level, military students.

KIRISH

Hozirgi kunda harbiy ta'lim tizimi nafaqat kelajak ofitserlarini tayyorlash, balki ularning ijtimoiy-madaniy faolligini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki harbiy xizmatchilar nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari, balki keng dunyoqarash, madaniy saviya va ijtimoiy faollik bilan ham ajralib turishlari lozim. Ayniqsa, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida tahsil berayotgan o'qituvchilarda ushbu sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va

ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", [1; 1-146-b] degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy-madaniy faollik jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, madaniy merosni anglash va uni rivojlantirish bilan bog'liq jarayondir.

Rus olimi V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, ijtimoiy-madaniy faollik yoshlarning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishiga va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek olimlari N.Nishonov va A.Xodjayevlarning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, madaniy faollikning shakllanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. X.Y.Abdullajanova ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni tahlil qiladi. U ijtimoiy kompetentlikning talaba va pedagoglar orasida qanday shakllanishini va bu kompetentlikni rivojlantirish uchun samarali usullarni o'rganadi. Z.T.Rahimov maqolasida pedagogik kompetentlikni ta'lim jarayonining rivojlanishiga bo'lgan ta'siri haqida fikr yuritiladi. Muallif, pedagoglarning kompetentlik darajasining o'quv jarayoniga qanday ta'sir qilishi, bu kompetentlikni qanday shakllantirish mumkinligini tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, mantiqiylik va qiyosiylik metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy-madaniy faollikning asosini 2 ta katta guruhga mansub bo'lgan kompetensiyalar tashkil etadi. Birinchi guruhga mansub kompetensiyalar shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini mujassamlashtiradi. Mazkur guruhga quyidagi elementlarni kiritish mumkin: kommunikativ ko'nikmalar, guruhda ishlash layoqati, ziddiyatlar va muammolarni yecha olish layoqati. Ikkinchi guruh esa empatiya, rolli moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ ko'nikmalar shaxslararo munosabatlarga asos bo'ladi. Muloqot chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilari hayotida alohida ahamiyat kasb etib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kommunikativ jarayonning har bir subyekti o'z muloqotdoshiga nisbatan faollik ko'rsatadi. U o'z suhbatdoshiga axborotlarni taqdim etar ekan, qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlarini hisobga oladi.

Kommunikativ ko'nikmalar doirasida shaxslarning muvaffaqiyatli munosabat o'rnatishlari uchun zarur bo'ladigan ko'nikmalar nazarda tutiladi. Bunda asosiy e'tibor shaxslararo munosabatlar jarayonida nazokat bilan muomalada bo'lish, o'zini tutish, suhbatdoshiga hurmat ko'rsatish nazarda tutiladi. Ushbu jarayonda nafaqat kommunikativ ko'nikmalar, xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, balki kognitiv faoliyat ham amalga oshiriladi. "Kommunikativ kompetensiya –murakkab muloqot ko'nikma va malakalariga ega bo'lish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat ko'nikmalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy me'yorlar va cheklovlarni bilish, muloqot sohasida urf-odatlar, an'analar, odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq va tarbiya qoidalariga rioya qilish; milliy, sinfiy mentalitetga xos bo'lgan kommunikativ vositalarda yo'naltirilganligini ifodalaydi". [2; 2-38-b]

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ ko'nikmalar boshqalarni tushunish va uni tushunishlariga imkoniyat yaratishdan iborat shaxsiy layoqat sifatida namoyon bo'ladi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilari muloqotning turli usullarini o'zlashtirishlari va vaziyat bilan bog'liq holda uni qo'llashlari uchun ta'lim jarayonida qulay sharoit yaratilishi kerak. Shu asosda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarini shaxslararo munosabatga tayyorlash amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning shaxs faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarkibiy qismlari o'zaro muvofiq keladigan vaziyatlarni tanlash, xulq-atvor ko'rinishlarini o'zlashtirish, kommunikativ hamda integrativ ko'nikmalarni mujassamlashtiradi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishda o'zaro mantiqiy jihatdan aloqador bo'lgan uch holatni nazarda tutish kerak: istalgan, mumkin bo'lgan va bajarilishi shart deb topilgan holatlar.

Birinchi holat shaxsning o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonida muayyan harakatlarni bajarish istagini ifodalaydi. Ikkinchi holat esa mavjud vaziyat va shaxsiy imkoniyatlarini baholash, xulq-atvorning yo'l qo'yilgan xatolarini tahlil qilish va uning oqibatlarini bashoratlashda namoyon bo'ladi. Uchinchi holat esa o'zaro birgalikdagi harakatlar haqidagi bilimlar, uning me'yorlari, qonun-qoidalar va usullarini bilish orqali ifodalanadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilari ushbu jarayonda birgalikdagi harakatlarga shaxsiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish layoqatini ham egallaydilar. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida tayanch kompetensiyalar yordamida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishda ushbu holatlarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-madaniy faollikning muhim tarkibiy qismlaridan biri ziddiyatlarni bartaraf etish layoqatidir. Bu shaxsdan turli vaziyatlarda vujudga keladigan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi:

- haqiqatni bilish va tushuntira olish;
- shaxslararo munosabat jarayonida qabul qilingan me'yorlar yordamida o'zi va guruhdoshlarining xatti-harakatlarini baholay olish;
- bozor munosabatlarini hisobga olgan holda kasb tanlash;
- hayotiy talablar asosida o'z mavqeini aniqlash va turmush tarzini belgilash kabilari.

Bu o'rinda vaziyatlarni baholash usullarini egallash, harakatlarni loyihalash, munosabat ko'lamini kengaytirish, turli qarorlar qabul qilish haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-madaniy faollikning tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan ziddiyatlar va muammolarni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lish chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini kelajakda mikrosotsiumda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashadi. O'quvchilar faoliyatida har doim namoyon bo'lmaydigan biroq ularning xatti-harakatlari orqali seziladigan ijtimoiy-madaniy faollikning muhim tarkibiy qismlari empatiya, turli rollarni bajarishga moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik ham ijtimoiy-madaniy faollikning tarkibiy qismlari sifatida inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv komponentning tarkibiy qismi sifatida bilimlar, ishchan va shaxsiy munosabat o'rnatishning o'ziga xos usullarini egallash ham chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Shaxslararo munosabatga kirishish jarayonida xulq-atvorning o'ziga xos jihatlari, birgalikdagi harakatlar, guruhli faoliyatning rivojlanishi, rollar, nuqtai nazarlarning o'ziga xosligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-madaniy faollikning muhim tarkibiy qismlaridan biri mas'uliyatlilikdir. Mas'uliyatlilik o'qituvchining emotsional, axloqiy va dunyoqarashga oid sifatleri bilan bevosita bog'liq holda shakllantiriladi. Ijtimoiy-madaniy faollikning motivatsiya bilan bog'liq qismi o'z ichiga shaxslararo munosabatlar, muloqot, voqelikka nisbatan pozitiv yondashuv, ijtimoiy hamkorlik, xulq-atvor me'yorlarining o'zgarishi, inson xulq-atvori va faoliyati bilan bog'liq voqealarga e'tibor qaratish, ijtimoiy faoliyat motivlari, motivatsiyaning shakllanishi kabilarni o'z ichiga oladi.

Motivatsion komponentning tarkibiy qismlari sifatida o'z ehtiyojlari, istaklari, qiziqishlari va boshqalarga nisbatan munosabatini oliy qadriyat sifatida tushunish, e'tiborlilik, g'amxo'rlik, o'zaro yordam va rahmdillikni kiritish mumkin.

"Kompetentlikning instrumental asosini bilim, ko'nikma, malakalar tashkil qilar ekan uning motivatsion kompetentlikning asosiy omillaridan biridir. Motiv - harakatlantiruvchi kuch sifatida bo'lajak mutaxassisni motivatsiya va faoliyatga intilishini ta'minlaydi". [3; 2-91-b]

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikning rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun persektiv tashxislash metodikalaridan samarali foydalanish kerak. Shu bilan bir qatorda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilariga integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ularni ijtimoiylashtirishga xizmat qiladigan muayyan didaktik vositalar, usul va metodlardan foydalanishga harakat qildik. Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari va shart-sharoitlarini tadqiq qilish o'z yechimini kutayotgan muammolardandir. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni tarkib toptirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmlari, vositalarini aniqlash

ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tayanch kompetensiyalar yordamida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarida shakllantiriladigan ijtimoiy-madaniy faollik mazmun jihatidan muntazam takomillashadi. Tayanch kompetensiyalarni mazmun jihatidan boyitish asosida ijtimoiy-madaniy faollikning tarkibi ham takomillashadi.

Harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tamoyillarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy kompetensiya – bu ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar majmuida shakllantiriluvchi murakkab ijtimoiy pedagogik fenomen. Bunda bo'lajak pedagog shaxsining ijtimoiy kompetensiyalari uning muvaffaqiyatli faoliyati asosidir. Chunki u ijtimoiy xatti-harakatlarning yetarlicha tanlovini va shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatning ijtimoiy mohiyatini hisobga olgan holda, ijtimoiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosidir.

Ikkinchidan, o'qituvchida ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadi – uning atrofimizdagi olamga: Vatanga, odamlarga, tirik va jonsiz tabiatga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga hayotiy pozitsiyasini shakllantirish – insoniy munosabatlarni rivojlantirishdir. Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning mohiyatida ijtimoiy siyosiy, ma'naviy ma'rifiy, iqtisodiy, estetik qadriyatlar va o'z-o'zini rivojlantirish mavjud bo'ladi.

Uchinchidan, ijtimoiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining ijtimoiy–madaniy muhiti, oilasi, jamoaviy munosabatlarini o'rganish zarur.

To'rtinchidan, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda ushbu jarayonning ochiq ijtimoiy-pedagogik tizimga aylanishi, professor-o'qituvchilarning yuqori kasbiy darajasi va oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy ma'naviy muhit katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari talabalarning hayotiy qadriyatlarini tavsiflash, ochiqlik, muloyimlik, bag'rikenglik, o'zaro mehr oqibatlilik, fuqarolik fazilatlar, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, milliy g'oya, kasb tanlash motivlari, o'z o'zini tarbiyalash, ijtimoiy moslashuv va sotsializatsiya darajasi, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillari e'tiborga olinishi zarur. Raqobatbardosh, zamonaviy bilimli va yuksak ma'naviyatli mutaxassislar uchun zarur hisoblangan kompetensiyalarga bugungi kunda ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy–informatsion, kognitiv va maxsus kompetensiyalar kiradi. Bunda ijtimoiy kompetensiyalarning yetakchi o'rni e'tirof etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida oliy ta'lim muassasasi harbiy ta'lim yo'nalishi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda, avvalambor, muomala madaniyatining quyidagi qirralarni shakllantirishi kerakligini aniqladik:

- chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari va pedagoglar o'rtasidagi munosabat;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonidagi munosabat;
- mashg'ulotlar jarayonidagi munosabatlar;
- bo'lajak talabalarning xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish;
- ommaviy ishlar jarayonida rasmiy munosabatning elementlarini shakllantirish;
- hamkasblar o'rtasidagi munosabat;
- minnatdorchilik bildirish.

O'z tadqiqot ishimizda chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari talabarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning besh bosqichini shartli ravishda keltiramiz:

1. Bo'lajak harbiylar tomonidan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning anglanganligi.
2. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallanganlik.
3. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish.
4. Egallangan va o'zlashtirilgan qadriyatlarni o'zining kasbiy faoliyatida qo'llay olish.
5. Ijtimoiy-pedagogik ijodkorlik.

Anglanganlik va o'zlashtirganlik bu boshlang'ich bosqich, ya'ni kognitiv komponent, ijtimoiy-pedagogik amaliyot sohasida egallangan bilimlar.

O'zlashtirganlik va qo'llay olish ijtimoiy-pedagogik sohada individual shaxsiy tajriba, ijtimoiy-pedagogik borliqqa o'z munosabatini ishlab chiqish ko'nikmalarini anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisining eng muhim vazifasi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini barqarorlashtirish, to'ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalash uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat. Ularni amalga oshirish bosqichlari quyidagicha: talabani faoliyatini o'qituvchi boshqarishi; talaba va o'qituvchi tomonidan kasbiy kompetentlik ish mexanizmlarining birgalikda boshqarilishi; bo'lajak mutaxassisning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishini o'zi boshqarishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining talabalarda ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirish jarayoni kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglash, egallash va o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Birinchidan, bo'lajak harbiylar ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning mohiyatini chuqur anglash orqali jamiyatning rivojlanishida ularning ahamiyatini tushunib yetadilar. Bu esa ularda Vatanparvarlik, fidoyilik, milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish kabi fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallash jarayonida harbiy-ta'lim o'qituvchilari ning ma'naviy olami boyib, ularning ijtimoiy ong darajasi oshadi. Bu esa ularning harbiy etikaga, madaniy merosga va axloqiy normalarga bo'lgan hurmatini yanada mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali o'qituvchilar nafaqat ularni bilibgina qolmay, balki ushbu qadriyatlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Bu jarayonda kognitiv komponent muhim ahamiyat kasb etib, harbiy kadrlarning ijtimoiy-madaniy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, egallangan va o'zlashtirilgan qadriyatlarni harbiy kasbiy faoliyatda qo'llay olish harbiy xizmatchining mas'uliyatini oshirib, uning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Bu jihatdan mas'uliyatlilik komponenti dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, harbiylarning o'z burchiga sadoqatini kuchaytiradi.

Beshinchidan, harbiy sohada ijtimoiy-pedagogik ijodkorlik, ya'ni innovatsion yondashuv va kreativ fikrlash o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy faolligini yanada oshiradi. Motivatsion komponent esa harbiylarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, ularning jamiyat oldidagi vazifalarini yuksak darajada ado etishlariga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta'lim yo'nalishi fani o'qituvchilarining talabalarda ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirish jarayoni ko'p qirrali va uzluksiz jarayondir. Unda kognitiv, mas'uliyatlilik va motivatsion komponentlar uyg'un holda namoyon bo'lib, kelajak harbiy kadrlarining ijtimoiy jihatdan yetuk va madaniy barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизми қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 146 б.
2. Юлбарсова Хуршида Абдуллажоновна. Болажак социологларда ижтимоий компетентлиқни ривожлантириш. Монография. – Фарғона: "Классик" нашриёти, 2024. – 91 б.
3. Раҳимов З.Т. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. – Замонавий таълим, 2019, 7(80). – Б. 3-8.
4. Муслимов Н.А. Болажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.
5. Помуран Н.Н. Этнопсихологические особенности экономической социализации старшеклассников в современных условиях: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.05. – Иркутск, 2004. – 176 с.
6. Каримова В.М., Фойибова Н.А. Оилавий муносабатлар психологияси: Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2018. – 111 б.